

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalarini tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.


Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021-yil 1-iyun holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbir qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- iyun holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

4




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2021- yil yanvar- may oylarida)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar- may oylarida, birlikda)




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar




(1- iyun holatiga ko‘ra, birlikda)



Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **38,1** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2021-yil 1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **26,6 foizga oshdi**



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



182

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

2 805

Ishlab chiqarish sanoati

39

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

47

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

2021-yil 1-iyun holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlarini soni 3 073 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 26,6 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlarini ko'payishining asosiy omili - (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida 28,4 % ga (jami sanoatdagi ulushi 91,3 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 4,6 % ga (jami sanoatdagi ulushi 5,9 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 18,2 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,3 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 30,5 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,5 %) o'sishidir.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **8,6** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

Mikrofimlar

Kichik korxonalar




Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, yillar kesimida (birlikda)




2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 2 412 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8,6 % ga oshdi.

Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu - bino va inshootlar qurishda - o'tgan yilga nisbatan 10,3 % ga (jami qurilishdagi ulushi 60,6 %), fuqarolik obyektlarini qurish - 14,3 % ga (jami qurilishdagi ulushi 9,3 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 3,9 % ga (jami qurilishdagi ulushi 30,1 %) o'sishidir.


Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofirmalar



Kichik korxonalar




Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, yillar kesimida

(1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

2021-yil 1- iyun holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 5 981 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 31,5 % ga oshdi.

Jami savdo korxonalar va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili - avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan - 33,9 % ga (jami savdodagi ulushi 71,0 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan 23,4 % ga (jami savdodagi ulushi 20,9 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o'tgan yilga nisbatan - 33,6 % ga (jami savdodagi ulushi 8,0 %) o'sishidir.



- Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash
- Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo
- Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

• Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

400



• Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

11




• Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

9




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

Mikrofirmalar


Kichik korxonalar



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **14,0 foizga oshdi**




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




13,8 foizga oshdi



Mikrofimlar



Kichik korxonalar



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



99

yashash bo'yicha xizmatlar




1 242


Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar


2021-yil 1- iyun holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 1 341 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 14,0 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili - oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar 13,6 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 92,6 %), yashash bo'yicha xizmatlarning - 19,3 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 7,4 %) o'sishidir.



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofimlar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- iyun holatiga ko'ra 1 856 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 599 ga yoki 47,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 749 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 556 ga yoki 46,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 236 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 35 taga yoki 17,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yilning 1- iyun holatiga ko'ra 14 722 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 191 ga yoki 27,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 13 950 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 957 taga yoki 26,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 600 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 551 taga yoki 52,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

14



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni (2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra 179 tani tashkil etib, ulardan 177 tasi yoki 98,9 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 18 taga yoki 11,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-may oylarida 13 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)


16

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Qoraqalpog'iston Respublikasi	177	109	68
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	6	2	4
Beruniy	12	5	7
Bo'zatov	5	5	
Qorao'zak	11	8	3
Kegeyli	6	5	1
Qo'ng'iro't	7	5	2
Qonliko'l	7	4	3
Mo'ynoq	34	25	9
Nukus	10	6	4
Taxiatosh	11	4	7
Taxtako'pir	5	4	1
To'rtko'l	5	4	1
Xo'jayli	4	2	2
Chimboy	5	3	2
Shumanay	5	2	3
Ellikqal'a	4	3	1
Nukus sh.	40	22	18

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Nukus shahrida 40 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 22,6 %), Mo'ynoq 34 ta (19,2 %), Beruniy 12 ta (6,8%), Taxiato'sh va Qorao'zak 11 ta (6,2 %), Nukus tumani 10 tadan (5,6 %), Qonliko'l va Qo'ng'iro't tumanida 7 tani (4,0 %) tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Nukus shahri (28,5 %), To'rtko'l (10,3 %), Beruniy (8,4 %), Amudaryo (7,4 %), Ellikqal'a (6,1 %), Qo'ng'iroq (5,7 %), Xo'jayli (5,0 %), Nukus (4,6 %), Chimboy (4,0 %), Taxiatosh (3,3 %), Kegeylida va Qorao'zakda (2,8 %), Qonliko'l (2,7 %), Mo'ynoq va Shumanay (2,6 %), Taxtakopir (1,8 %) va Bo'zatov (1,4 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2021- yil yanvar- may oylarida, birlikda)

2021- yilning yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Nukus shahrida (25,5 %), To'rtko'l (9,3 %), Beruniy (8,7 %), Amudaryo (7,7 %), Ellikqal'a (6,8 %), Nukus (5,6 %), Xo'jayli (5,3%), Qo'ng'iroq (4,5%), Chimboy (3,9 %), Kegeyli (3,8 %), Bo'zatov va Qonliko'l (3,1 %), Taxiatosh (3,4 %) Mo'ynoqda (3,0 %), Shumanay (2,7 %), Qorao'zak (1,9 %), Taxtakopir (1,7 %) tumanlari ulushiga tegishli.




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni

(2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni

(2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Nukus shahrida (33,9 %), To'rtko'l (11,0 %), Beruniy (7,3 %), Amudaryo (6,7 %), Nukus (5,4 %), Qo'ng'iro't (5,1 %), Xo'jayli (4,9 %), Ellikqal'a (4,1 %), Chimboy (4,0 %), Qorao'zak (3,1 %), Kegeyli va Mo'ynoq (2,9 %), Taxiatosh (2,5 %), Bo'zatov, Qonliko'l va Shumanay (1,7 %), Taxtako'pir (1,1 %) tumanlari hissasiga tegishli.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.


Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Tel.: 61 224-92-09